

## ASRLAR OSHA SO'NMAGAN BOBUR IJODI

### Xasanova Maxbuba Ortiq qizi

*Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani 29-maktabning  
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining nazariy ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, Bobur ijodining hozirgi davrda tutgan o'rnining nazariy asoslari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** shoh va shoir, Boburnoma, Mubayyin, ijod, ruboiy, Boburxonlik, badiiy adabiyot.

Istiqlol yillari o'zbek adabiyotshunosligida navoiyshunoslik bilan bir qatorda yangi ilmiy tarmoq – boburshunoslik ham uzil-kesil shakllandi. XIX asrdayoq G'arbiy Yevropada paydo bo'lgan va XX asrda rivojlanish bosqichiga kirgan boburshunoslik ilmi endi nafaqat shakllandi, hatto bu sohada “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi” va “Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburiylar, Bibliografiya” (Moskva, 2016) singari fundamental nashrlar ham dunyo yuzini ko'rdi. O'tgan yilgi – Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bag'ishlangan Mirzo Kenjabekning “Mubayyin” va “Volidiya”ga doir yangi tadqiqotlari va taniqli boburshunos Hasan Quadratullayevning “Boburning adabiy-estetik olami” (“Ma'naviyat” nashriyoti, 2018) monografiyalarining chop etilgani ham ilmdagi sezilarli ishlardan bo'ldi.

“Boburnoma” qomusiy asar bo'lgani uchun o'nlab fanlar ma'lumotlari saqlangan xazinaga o'xshaydi. Bu xazinaga adabiyotshunos kiradimi, tilshunos bosh suqadimi, tarixchi varaqlab ko'radimi, har gal o'zidan oldingi tadqiqotchining ko'zi tushmagan yangi-yangi ma'lumotlarga duch kelaveradi. Biz quyida filologiya fanlari doktori, professor Hasan Quadratullayevning “Boburning adabiy-estetik olami” asari haqida so'z yuritimiz. H.Quadratullayev bu kitobigacha Bobur va “Boburnoma” xususida ko'p kitoblar yozdi. O'quvchilar, ayniqsa, uning “Boburning armoni”, “Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi” kitoblarini sevib mutolaa qilganlar.



Mahbuba Xasanova  
o'qituvchi

**“Boburnoma” o'zbek va umumturkiy adabiyotining dunyoga ma'lum va mashhur qomusiy asari. Bu memuarda O'zbekiston, Afg'oniston va Hindiston xalqlarining madaniyati, qadriyatlari, o'ziga xos xususiyatlaridan tortib, tabiati, geografiyasi, hayvonot va nabotot olami to'g'risida bebaho**



ma'lumotlar mavjud. Bu nodir manbaning turli tillarga tarjima qilingan nashrlarini qo'ya turaylik, o'zimizda mumtoz asarlari yuzasidan tuzilgan mukammal izohli lug'atlar ham kamchilikdan xoli emas. Bugun "Boburnoma"ni nozik jihatlarigacha teran anglab, tadqiq eta oladigan boburshunoslar borligiga aminmisiz?

- Haqiqatan ham buyuk qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari bebaho qo'llanma. U nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari va yoki siz sanagan yurtlar, balki Eron, Turkiya, Bangladesh, Pokiston va yana qator davlatlarning madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, qadriyatlarini o'zida aks ettirgani bilan qimmatlidir. Yaponiyalik yirik Boburshunos Eyji Mano "Boburnoma"ni "ma'lumotlar xazinasini" deya atagan bo'lsa, angliyalik boburshunos Beverij xonim "butun tarixda yaratilgan yozma yodgorliklarning eng bebahosidir", deydi. Germaniyalik boburshunos Klaus Shoning esa "Boburnoma"ga baho berib, "mukammal tizimdagi xalq tilida yozilgan eng katta hajmdagi asardir", deya ta'kidlaydi. Xullas, "Boburnoma" bahosi yo'q asar. Bu memuar asar hali ko'plab boburshunoslar uchun yangi mavzu bo'ladi. Shu ma'noda asarning nozik jihatlarini yanada teran anglab, yangicha qarash va yondashuvlar bilan uning asosida lug'atlar, yangi qo'llanmalar yaratilsa, biz bundan faqat xursand bo'lamiz. Zero, bugun O'zbekiston boburshunoslik markaziga aylanib ulgurdi. Bu bahoga o'tgan yillar davomida o'zbek boburshunoslari tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar natijasida erishdik. To'g'ri, boburshunoslikdagi barcha izlanishlarni mukammal deyishdan yiroqmiz. Bobur va boburiylar ijodi, faoliyati haqida nashr ettirilayotgan ayrim kitoblar, qo'llanmalarda chalkashliklar bor. Aslida ish bor joyda kamchiliklar kuzatiladi, bir fikr ikkinchisidan farqlanadi. Biroq bu Bobur asarlarining asliyatiga ta'sir etmasligi shart. Chunki oddiy o'quvchi asliyatni o'qishi kerak. Men boburshunoslarimizni yanada sinchkovlik va ziyraklikka chaqirgan bo'lardim.

**Bobur bilan Navoiy hayotlik chog'larida yuzma-yuz uchrashmagan. Mirzo Bobur "Vaqoe"da Navoiy qiyofasini shu qadar aniq tasvirleydiki, ikki ulug' zot azaldan qalin do'st bo'lgan, deb o'ylaysiz. Ammo ana shu sahifalar asarning xorijiy tillardagi barcha variantlarida to'g'ri aks etgan, deb bo'lmaydi. Masalan, inglizcha tarjimalarda Boburning Navoiy ijodiga bergan bahosi o'zgacha talqin qilingan. Umuman, ona tilimizda bitilgan tarixiy asarlarning xorijiy tilga tarjimalarini diqqat bilan o'rganib, bu borada balki alohida tadqiqotlar uyushtirish lozimmikan, degan mulohazalarga borasan, kishi. Deylik, "Boburnoma"ning ingliz tiliga qilingan tarjimalaridagi shu kabi noxolisliklar bu ikki ulug' zotni yaxshi bilmagan, asarlarini o'qimagan millionlab ingliz zabon kitobxonlarni chalg'itishi mumkin.**

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da hazrat Alisher Navoiy va uning ijodiga to'xtalib, o'z bahosini bergan. Va bu baho xolis, buyuk Navoiyning iqtidoridan hayratlanish va undan faxrlanish ekanini ham ilg'ash qiyin emas. Ammo ingliz tilidagi tarjimasi xususidagi fikringizga qo'shilaman. O'zbek boburshunoslari tadqiqotlar olib borsa, foydadan xoli bo'lmasdi. Shu o'rinda, inglizlar haligacha Bobur va boburiylarni



“buyuk mo‘g‘ullar” deb atashi aynan, shu tarjima yoki yevropacha qarashning noto‘g‘ri shakllanganining ta‘siridir. Biz har safar xorijlik suhbatdoshlarimiz bilan shu mavzuda fikrlashamiz, Boburmirzo buyuk o‘zbek ekanini qayta-qayta ta‘kidlaymiz. Afsuski, uzoq yillar davomida ularning ongiga singib ketgan “buyuk mo‘g‘ul” tushunchasini butunlay chiqarib yuborish qiyin. Bu ham o‘sha siz aytgan noto‘g‘ri talqinning natijasi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
2. Valixo'jaev B., Tohirov Q. O`zbek adabiyoti tarixi. XVI asr. – Sam.: SamDU nashri, 2002.
3. Abdug'afurov A. Bobur she'riyati. Bobur. Devon. –T.: Fan, 1994, 3-14 –betlar.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (XVI-XIXasr I yarmi) -Toshkent, Fan, 2006. -240 b.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. -T.: Fan, 1994.